

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEXNIK MEXANIKA FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Texnik mexanika fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Texnik mexanika

1. Nazariy mexanika;
2. Materiallar qarshiligi;
3. Mashina va mexanizmlar nazariyasi;
4. Mashina detallari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Nazariy mexanika.	Moddiy nuqta va qattiq jism kinematikasi, Nyutonning mexanika qonunlarini, mexanikadagi kuchlarni, impulsning saqlanish qonunini, energiyaning saqlanish qonuni, absolyut qattiq jismlarning muvozanati va tayanch reaksiya kuchlariga ham nuqta trayektoriyasi uning tezkil va tezlanish aniqlashga, dalanber prinsipiga doir masalalar yechishini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	30 %	12 ta
2	Materiallar qarshiligi	Materiallarni mustahkamligi, bikirligi va ustuvorligini hisoblash va tahlil qilishni, cho'zilish va siqilish, siljish, buralish va egilishdagi deformatsiyalarni aniqlash va hisoblash ularning epyuralarini qurish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	30%	12 ta
3	Mashina mexanizmlar nazariyasi va	Mexanizmlarni kinematik va dinamik tahlil qilish hamda loyihalashni, richagli, mushtumchali, tishli va shu kabi mexanizmlarni asur guruhlariga bo'lish va erkinlik darajasini hamda holaty planini tuzish va tezlik tezlanishlarini hisoblash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta
4	Mashina detallari	Mashina detallarini hisoblash va loyihalashni, mexanik uzatmalar, vallar va o'qlar, podshipniklar, muftalar va shponkali, shilisli birikmalarni hisoblash va loyihalash ishchi va konstruktiv chizmalarini chizish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	25 %	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	40 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	10 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Texnik mexanika fanidan tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. A.Nabiyev. "Texnik mexanika" Toshkent 2010 yil
2. I.G.Shin., Z.A.Shodmonkulov va b. "Texnik mexanika" Toshkent, Adabiyot uchqunlari - 2018 yil
3. M.M. Mirsaidov va boshqalar. "Nazariy mexanikaning qisqa kursi". O'quv qo'llanma, -T.: O'zbekiston. - 2008
4. Djuraev A., Maksudov R. "Mexanizm va mashinalar nazariyasi" Darslik. 1,2- qism. "Fan va texnologiya" nashriyoti., Toshkent-2019 y